



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI



**2025-YIL YANVAR-SENTABR OYLARI
BO'YICHA QISHLOQ XO'JALIGINING ASOSIY
IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI**

QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK YO‘NALISHIDAGI
KORXONA VA TASHKILOTLAR


Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Resublikada **faoliyat ko‘rsatayotgan** korxona va tashkilotlar soni **2025-yil 1-oktabr** holatiga **460,3 ming**tani tashkil etib, shundan **33,2 ming**tasi (7,2%) qishloq, **o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlardir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni, birlik

Iqtisodiy faoliyat turlari	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			kichik biznes subyektlari
Qishloq, o' rmon va baliqchilik xo' jaligi	33 223	32 753	32 625
Sanoat	57 799	57 633	56 820
Qurilish	29 185	28 928	28 649
Savdo	149 470	149 444	148 659
Tashish va saqlash	16 816	16 751	16 558
Yashash va ovqatlanish bo' yicha xizmatlar	29 325	29 239	29 099
Axborot va aloqa	11 241	10 953	10 746
Sog' liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko' rsatish	13 161	10 013	9 893
Boshqa turlar	120 109	58 607	57 266

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, %






Joriy yil **yanvar-sentabr oylarida** jami **1,3 million**dan ortiq (rejaga nisbatan **107,1%**) ish o'rinlari yaratilib, aholining doimiy va mavsumiy bandligi ta'minlandi. Jumladan, fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi korxonalarida **502,7 ming**, tomorqada **272,1 ming**, dehqon xo'jaligi uchun yer ajratishda **12,4 ming**, pillachilikda **482,5 ming** hamda suv va o'rmon xo'jaliklarida **16,3 ming** nafar fuqarolar band qilindi.

2025-yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yaratilgan ish o'rinlarining eng yuqori hajmi **Qashqadaryo** (**312,1 ming ta**), **Toshkent** (**189,3 ming ta**), **Surxondaryo** (**176,9 ming ta**), **Farg'ona** (**122,9 ming ta**), **Buxoro** (**77,1 ming ta**), **Andijon** (**68,9 ming ta**), **Xorazm** (**75,2 ming ta**) viloyatlarida qayd etildi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yaratilgan yangi ish o'rinlari, ta




OZIQ-OVQAT MAHSULOTI ISHLAB CHIQRISH



Joriy yil **yanvar-sentabr** oylarida **128,9 trln** so'm hajmda oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi **106,5 %** (jami sanoat mahsulotlari tarkibidagi ulushi – **16,7 %**) ni tashkil etdi

Oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi, o'sish sur'ati va ulushi dinamikasi

Yanavr-sentabr



QISHLOQ, OʻRMON VA BALIQCHILIK XOʻJALIGINING
ASOSIY IQTISODIY KOʻRSATKICHLARI

Oʻzbekiston Respublikasida qishloq, oʻrmon va baliqchilik
xoʻjaligi tarmogʻining YAIM (YAHM) tarkibidagi ulushi, % da

Qoraqalpogʻiston Respublikasi	19,3
Andijon	27,3
Buxoro	32,8
Jizzax	37,8
Qashqadaryo	30,9
Navoiy	9,2
Namangan	27,2
Samarqand	29,1
Surxondaryo	37,8
Sirdaryo	28,9
Toshkent	17,0
Fargʻona	25,9
Xorazm	33,3


Yalpi hududiy mahsulot tarkibida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining ulushini hududlar kesimida tahlil qilar ekanmiz, eng yuqori ulush Surxondaryo (37,8 %), shuningdek **Jizzax** (37,8 %) viloyatlariga toʻgʻri kelsa, aksincha kam ulushga ega hududlarga Navoiy (9,2 %) va Toshkent (17,0 %) viloyatlarini keltirib oʻtish mumkin.



YAIM (YAHM) tarkibidagi ulushi

2025- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga koʻra, yalpi ichki mahsulot (YAIM) (yalpi qoʻshilgan qiymat (YAQQ)) tarkibida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining ulushi **17,0 %** ni tashkil qildi.

Maʼlumot uchun: 2024- yilda YAIM (YAQQ) tarkibida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining ulushi **18,6 %** ni tashkil qilgan.



- Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi
- Boshqalar

HUDUDLAR BO'YICHA QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI
MAHSULOT (XIZMAT)LARNING HAJMI



	Hajmi, mlrd.so'm	O'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Respublikasi	366 216,0	104,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	12 129,3	104,3
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	34 429,4	101,0
Buxoro	33 243,8	104,7
Jizzax	24 576,3	106,0
Qashqadaryo	35 273,9	102,0
Navoiy	17 339,2	104,4
Namangan	27 528,5	103,8
Samarqand	44 400,2	104,4
Surxondaryo	30 021,9	102,2
Sirdaryo	12 250,8	105,8
Toshkent	36 135,8	105,0
Farg'ona	34 534,7	107,1
Xorazm	24 352,2	104,9

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida, hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)- larining eng yuqori hajmi Samarqand (44 400,2 mlrd. so'm), Toshkent (36 135,8 mlrd. so'm) va Qashqadaryo (35 273,9 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etilib, aksincha kam hajmga ega hududlarga Qoraqalpog'iston Respublikasi (12 129,0 mlrd. so'm), Sirdaryo viloyati (12 250,8 mlrd. so'm) va Navoiy viloyatini (17 339,2 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining
hududlar kesimida o'sish sur'atlari**


Sezilarli darajadagi yuqori o'sish sur'atlari Farg'ona (107,1%), Jizzax (106,0%), Sirdaryo (105,8%), Toshkent (105,0%) viloyatlarida qayd etildi. Boshqa hududlarga nisbatan pastroq o'sish sur'atlari Andijon (101,0%), Qashqadaryo (102,0%), Surxondaryo (102,2%) va Namangan (103,8%) viloyatlarida kuzatildi.



QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **352 689,4** mlrd, so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan **104,1** % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari **159 110,7** mlrd. so'mni (105,9 %) chorvachilik mahsulotlari – **193 578,7** mlrd, so'mni (**102,1** %) tashkil qildi.




Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Samarqand (**40 612,7** mlrd. so'm), Andijon (**30 862,6** mlrd. so'm) va Qashqadaryo (**30 409,1** mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qoraqalpog'iston Respublikasi (**9 706,2** mlrd. so'm), Sirdaryo viloyati (**10 050,9** mlrd. so'm) va Navoiy viloyati (**14 504,8** mlrd. so'm)ni keltirib o'tish mumkin.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari o'sish sur'atini hududlar kesimida tahlil etar ekanmiz yuqori o'sish sur'atlari Qashqadaryo (**104,2** %), Xorazm (**104,0** %), Farg'ona (**103,9** %), Navoiy va Surxondaryo (**103,7** %), viloyatlarida qayd etildi. Sirdaryo (**99,7** %), Jizzax (**101,2** %) va Buxoro (**101,6** %) viloyatlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.



DEHQONCHILIK MAHSULOTLARI

Hududlar kesimida dehqonchilik
mahsulotlari hajmi, mlrd. so'm



O'zbekiston Respublikasi
2025- yil yanvar-sentabr




159 110,7 mlrd. so'm



O'sish sur'ati 105,9 %

Qishloq xo'jaligi
mahsulotlarining umumiy
hajmdagi ulushi



Yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari hajmini hududlar kesimida tahliliga ko'ra qayd etish kerakki, eng yuqori hajmi Samarqand (20 634,5 mlrd so'm), Farg'ona (19 280,9 mlrd so'm), Andijon (18 621,4 mlrd so'm), Toshkent (14 925,8 mlrd so'm), Surxondaryo (14 780,4 mlrd so'm) va Buxoro (14 348,9 mlrd so'm) viloyatlarida kuzatildi.

CHORVACHILIK MAHSULOTLARI

Respublikada jami yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari tarkibida eng katta ulush Samarqand (**11,5 %**), Qashqadaryo (**11,5 %**) va Toshkent (**10,0 %**) viloyatlariga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlari hajmi, mlrd. so'm


Samarqand	22 298,7
Qashqadaryo	22 215,1
Toshkent	19 338,7
Buxoro	18 344,0
Jizzax	15 472,1
Surxondaryo	14 651,4
Andijon	14 566,6
Farg'ona	14 408,2
Xorazm	14 278,4
Namangan	13 407,9
Navoiy	11 871,2
Qoraqalpog'iston Resp.	7 086,2
Sirdaryo	5 640,4

O'zbekiston Respublikasi

2025- yil yanvar-sentabr



Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmdagi ulushi




Yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari o'sish sur'atini hududlar kesimidagi tahliliga ko'ra, yuqori o'sish sur'atlari Toshkent (**104,1 %**), Namangan (**103,5 %**), Farg'ona (**102,7 %**) viloyatlarida qayd etildi.

YALPI ICHKI MAHSULOT TARKIBIDA QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGINING O'RNI


2025-yilning yanvar-sentabr oylarida mamlakatimiz **yalpi ichki mahsuloti 1 303,7 trln so'mni**, 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish **107,6 foizni** tashkil etdi. Yalpi ichki mahsulot hajmi **106,4 mlrd AQSh dollari** ekvivalentiga teng bo'ldi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining yalpi qo'shilgan qiymati hajmi **211,0 trln so'mni** yoki **17,2 mlrd dollarni** tashkil etdi.

Yalpi ichki mahsulotdagi qo'shilgan qiymati ulushi esa **17,0 foiz** darajada bo'ldi.



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining yalpi qo'shilgan qiymati, o'sish sur'ati, YAIMdagi ulushi



QISHLOQ O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARISH HAJMLARI DINAMIKASI


2025-yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan yalpi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **366,2 trln so‘mni** tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **104,1 foizga** o‘shirildi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning AQSh dollaridagi ekvivalenti **29,9 mlrd dollarni** tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **35,0 trln so‘mlik** (**2,9 mlrd doll**) ko‘p mahsulotlar ishlab chiqarildi.


Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi aholi jon boshiga **9,7 mln so‘mni** tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan (**0,8 mln so‘m**) **2,1 foizga** oshdi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi va aholi jon boshiga o‘sishi



QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGIDA MAHSULOTLARNI ISHLAB CHIQRISH HAJMI

Qishloq xo'jaligida xizmat ko'rsatish va ovchilikda **3,7 trln so'm**, o'rmon xo'jaligida **7,4 trln so'm** va baliq xo'jaligida **2,4 trln so'm**, dehqonchilik mahsulotlari **159,1 trln so'm**, chorvachilik mahsulotlari **193,6 trln so'm** ishlab chiqarilgan. Tarmoqlar bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining yuqori ulushi chorvachilikka to'g'ri keladi - **52,9 foiz**. Dehqonchilikda - **43,4 foiz**, o'rmon xo'jaligida - **2,0 foiz**, qishloq xo'jaligida xizmat ko'rsatish va ovchilikda - **1,0 foiz**, baliqchilik xo'jaligida - **0,7 foizni** tashkil etdi.




■ 2024-yil yanvar-sentabr mlrd so'm

■ 2025-yil yanvar-sentabr mlrd so'm

HUDUDLAR BO'YICHA QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI MAHSULOT (XIZMAT)LARNI

2025-yil **yanvar-sentabr** oylarida hududlar bo'yicha ishlab chiqarilgan qishloq, o'rmon baliq xo'jaligi mahsulotlarini ulushining o'sish sur'ati **Jizzax (107,5 %)**, **Qoraqalpog'iston Respublikasi (103,0 %)** va **Sirdaryo (102,7 %)** viloyatlarida qayd etildi. **Andijon (-5,1 foiz)**, **Samarqand (-5,0 foiz)**, **Surxondaryo (-2,7 foiz)** viloyatlarida yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ulushida pasayish kuzatildi.

Hududlarning yalpi ulushi va o'sish sur'atlari, %



■ 2024-yil yanvar-sentabr, trln so'm

■ 2025-yil yanvar-sentabr, trln so'm

■ Ulushning o'sish sur'ati, %

DEHQONCHILIK MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQUARISH

DON

8 407 111,2
ming tn foiz

SABZAVOT


9 851 100,1
ming tn foiz

KARTOSHKA

3 056 100,1
ming tn foiz



Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi
(yanvar-sentabr, ming tn)



DEHQONCHILIK MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQUARISH

POLIZ

2 134 115,4
ming tn foiz



MEVA

2 559 104,3
ming tn foiz




UZUM

1 468 107,7
ming tn foiz



Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi
(yanvar-sentabr, ming tn)




CHORVACHILIK MAHSULOTLARI VA OVLANGAN BALIQ

2025-yilning **yanvar-sentabr** oylarida **2,2 mln tonna** go'sht yetishtirilgan. Bu ko'rsatkich 2024-yilning mos davri bilan solishtirganda **2,7 %**ga oshgan. Hududlar bo'yicha go'sht yetishtirish hajmi **Samarqand viloyatida 245,0 ming tonna**, **Qashqadaryo viloyatida 243,0 ming tonna**, **Toshkent viloyatida 240,4 ming tonna**, **Buxoro viloyatida 221,7 ming tonna**, **Surxondaryo viloyatida 156,2 ming tonnani** tashkil etdi.

GO'SHT	SUT	TUXUM	BALIQ
2 170 ming tn102,7%	9 002 ming tn100,5%	6 332 ming tn104,6%	90,1 ming tn101,0%



Yanavar-sentabr,
ming tonna; mln. dona




CHORVA MOLLARI VA PARRANDALAR BOSH SONI

	2024-yil 1-oktabr	2025- yil 1-oktabr	o'sish sur'ati, %
 Yirik shoxli qoramollar mln bosh	14,1	14,3	1,1%
 Sigirlar mln bosh	5,0	5,0	0,4%
 Qo'y va echkilar mln bosh	24,4	24,8	1,6%
 Parrandalar mln bosh	101,9	110,8	8,7%

2025-yilning 1-oktabr holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni **14 281,3 ming boshga** yetdi, (2024-yilning mos davriga nisbatan **1,1 %** ga ko'p), sigirlar **5 050 ming bosh** (**0,4 %** ga ko'p), qo'y va echkilar **24 811,2 ming bosh** (**1,6 %** ga ko'p), parrandalar **110 794,2 ming boshga** (**8,7 %** ga ko'p) yetdi. Eng ko'p yirik shoxli qoramollar soni Qashqadaryoda (**1801,6 ming bosh**), Samarqandda (**1741,3 ming bosh**), Buxoroda (**1386,0 ming bosh**) qayd etilgan. Chorva hayvonlari va parrandalarning **59,2 foizi** dehqon xo'jaliklari toifasi, **15,4 foizi** fermer xo'jaliklari, **24,4 foizi** qishloq xo'jaligi korxonalari hisobiga to'g'ri kelmoqda.

Chorva xayvonlari va parrandalar bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, %



■ Fermer xo'jaliklari ■ Dehqon xo'jaliklari ■ Qishloq xo'jaligi korxonalari